

Yurtga sadoqat - chin sadoqat

Ustoz bog'bon kabi yaratuvchan kasb sohibi. Bog'bonning mashaqqatli mehnati samarasi o'laroq yetishtirilgan noz-ne'matlaridan xalq bahramand bo'lganidek, ustoz igna bilan quduq qazish barobarida, qalb qo'rini baxsh etib, ilmiy va hayotiy saboqlar berib tayyorlagan mahsuli - shogirdlari siyomosida mamlakatni taraqqiy ettirish, xalq farovonligini yuksaltirishga xizmat qiladi. Ana shunday yuksak saodatga musharraf bo'lib, o'zining ko'p yillik mehnat faoliyati mobaynida bir necha shogirdlar tayyorlagan fidoyi insonlardan biri, "Gidromelioratsiya" fakulteti geologiya-minerologiya fanlari nomzodi, dotsent, Yusupov Giyos Usmonovichdir 80 yoshni qarshilayotgan ustozning bugungi g'ayrat-shijoati, yuksak ruhiyati, aytish mumkinki, yoshlarimiz uchun tom ma'noda o'rnakdir.



Yusupov Giyos Usmonovich hamisha insonlar og'irini yengillashtirishga, ularga qo'lidan kelgancha yaxshilik qilishga intildi. Doimo ilm ahlini qadrlab, shogirdlarini ham shunga da'vat etdi. U kishi yoshlarga ilm yo'lida hech kimga hasad qilmasdan, muvaffaqiyatlardan havolanib ketmasdan halol va sofdil bo'lish zarurligini uqtirib kelgan. Biz shogirdlar unga munosib bo'lishdek yuksak mas'uliyatni doimo his qilib turamiz. Yurtga sadoqat bilan xizmat qilishni o'zining oliy saodati deb bilgan ustozimizni fakultet jamoasi, "Gidrologiya va gidrogeologiya" kafedrasida a'zolari, muborak 80 yoshga to'lishi munosabati bilan samimiy tabriklaydilar.



TIQXMMI matbuot xizmati